JIZZAX VILOYATIDA EKOLOGIK, REKREATSIYA TURIZMLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI PROGNOZLASHTIRISH



G'apparov Azim Qayumovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
katta o'qituvchisi, PhD
ORCID 0009-0004-9424-0984

Annotatsiya: Turizm xizmatlari xizmat ko'rsatish jarayonida to'g'ridan to'g'ri xom ashyo materiallarini juda kam miqdorda iste'mol qilgani bilan daromadligi hamda foydaliligi juda yuqoridir. Shu sababli, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilib o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Ushbu maqolada mamlakatda qaysi sohani rivojlantirmasdan uning rivojlanishiga ko'plab omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi, ya'ni natija ma'lum omillar ta'sirida vujudga kelashi tahlili yoritilgan, bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz davrlar uchun qiymatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: funksiya, funksional bog'lanish, turizm, statistika, dasturlar, prognozashtirish, ekologiya, samaradorlik, rentabellik, natijaviylik.

Abstract: Tourism services are distinguished by their high profitability and usefulness, despite the minimal consumption of raw materials directly in the service process. Consequently, numerous reforms are being implemented in our country today to develop the tourism sector, and they are demonstrating their effectiveness. This article analyzes how numerous factors influence the development of any industry in the country, that is, the result arises under the influence of certain factors, and also presents the values of a number of economic indicators for forecast periods.

Key words: function, functional relationship, tourism, statistics, programs, forecasting, ecology, efficiency, profitability, effectiveness.

Аннотация: Туристические услуги отличаются высокой прибыльностью и полезностью, несмотря на минимальное потребление сырья и материалов непосредственно в процессе обслуживания. В связи с этим, в нашей стране сегодня проводится множество реформ по развитию сферы туризма, которые показывают свою эффективность. В данной статье анализируется, как на развитие той или иной отрасли в стране влияют многочисленные факторы, то есть результат возникает под воздействием определенных факторов, а также приводятся значения ряда экономических показателей для прогнозных периодов.

Ключевые слова: функция, функциональная связь, туризм, статистика, программы, прогнозирование, экология, эффективность, рентабельность, результативность.

KIRISH

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligini oshirishda bugungi resurslarning cheklanganligi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatiga alohida e'tibor qaratishga, xizmat ko'rsatish sohalarini barqaror rivojlantirishni talab qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohalarida barcha xizmatlarni ko'rsatish alohida-alohida xususiyatlarga ega. Ushbu sohalar ichida biri-biri bilan bog'lanib, qo'shib ketadigan, majmuali xizmatlarni ko'rsatadigan soha borki, u sohaning rivojlanishi bir vaqtning o'zida mehmonxona xo'jaligidagi xizmatlarini, umumiy ovqatlanish xizmatlarini, transport-kommunikatsiya xizmatlarini, savdo xizmatlarining rivojlanishiga olib keladi va mamlakatdagi xorijiy valyuta aylanmasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu soha shubhasiz turizm sohasidir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korrelyatsiya va regressiya tahlili o'zgaruvchilar orasidagi statistik bog'lanishlarni o'rganishga qaratilgan usullardir. Tadqiqotlarda ularning asosiy tamoyillari, korrelyatsiya koeffitsienti yordamida bog'lanish darajasi va yo'nalishini aniqlash, regressiya tenglamasi orqali esa prognozlash imkoniyatlari haqida ma'lumot beriladi. Masalan, N.Zaripovning ishlarida (2015) regressiya modellari yordamida korxonalar daromadi, xarajatlari va foyda ko'rsatkichlari orasidagi bog'lanishni tahlil qilishni tushuntirilgan. Ko'plab adabiyotlar, jumladan, Richard I. Levin va David S. Rubinlarning "Statistics for Management" kitobi, iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlarni baholashda korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalanishni o'rgatadi. Bu manbalar savdo hajmi, mehnat unumdorligi, kapital miqdori kabi ko'rsatkichlar va foyda ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish imkonini beradi. Ularning asarlarida korrelyatsiya yordamida bog'lanishning kuchini aniqlash, regressiya tenglamasi yordamida esa kelajakdagi ko'rsatkichlarni bashorat qilish usullari yoritilgan. Adabiyotlarda regressiya tahlilining iqtisodiy prognozlashdagi o'rni keng yoritilgan. Korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilishda regressiya tahlili yordamida kelajakdagi savdo hajmi, foyda, xarajatlari va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish tahlil qilinadi. Masalan, Damodar N. Gujarati va Dawn C. Porterlarning "Basic Econometrics" asarida turli xil regressiya modellarning samaradorligi, ularning iqtisodiy rivojlanishni bashorat qilishdagi qo'llanilishi batafsil keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, ilmiy-abstraksiya, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, makon va zamon mantiqiy fikrlash kabi usullardan keng foydalanilgan. Tadqiqot Jizzax viloyatining turizm sohasining rivojlanishini bashorat qilish maqsadida korrelyatsiya va regressiya tahlili yordamida asosiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, regressiya modeli tuzish, modelning statistik ishonchligini baholash hamda kelajakdagi o'zgarishlarni prognozlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turistik korxonalarda samaradorlik ko'rsatkichlar tizimi quyidagicha tasniflangan(1-jadval).

Turistik korxonalar samaradorlik darajasiga ko'plab ichki hamda tashqi omillar ta'sir etishi inobatga olinib yuqoridagi turistik korxonalar samaradorlik ko'rsatkichini quyidagicha yoyish mumkin.

$$TKS=D/X=(D/KI)*(KI/SF)*(SF/X)$$

Bu yerda turistik xizmatlar samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida quyidagilar olingan.

1. D/KI - har bir so'mlik kiritilgan investitsiya daromadlilik darajasi;
2. (KI)/(SF) – har bir so'mlik foydaga erishish uchun kiritilgan investitsiya miqdori;
3. SF/X - turistik korxona rentabelligi.

1-jadval. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar tizimi.

T/R	Ko'rsatkichlar nomi	Aniqlash yo'llari	izoh
Turistik korxonalar nuqtayi nazaridan:			
1	Turistik korxonalarga kiritilgan investitsiyalar rentabelligi	$TKIR= SF*100/KI$	SF-sof foyda, KI-kiritilgan investitsiya
2	Investitsiyalarning daromadlilik darajasi	$ID=D/KI$	D-daromad KI-kiritilgan investitsiya
3	Turistik korxonalar samaradorligi	$TKS=D/X$	D-daromad X-xarajat
Turdosh korxonalar nuqtayi nazaridan:			
4	Umumovqatlanish korxonalari samaradorligi	$UKS=TT/OX$	TT-turistlardan tushum OX-ovqatlanish xarajatlari
5	Mehmonxonalar samaradorligi	$MS=T/YaX$	T- tushum YaX-yashash xarajatlari
6	Transport xizmatlari samaradorligi	$TXS=T/TX$	T- tushum TX-transport xarajatlari



Ushbu omillar turistik korxonalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar sifatida qaraldi hamda ularning o'zgarishi korxona samaradorligini ham bir vaqtning o'zida o'zgarishiga olib keladi, ya'ni omillar va natija o'rtasidagi bog'lanish funksional bo'ladi. Ushbu o'zgarishlarning natijaga ta'sirini baholashda hamda omilli tahlilni amalga oshirishda iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan zanjirli almashtirish usulidan foydalanish tavsiya etildi. Buning uchun har bir ko'rsatkichni ixchamlashtirilgin holda belgilab olamiz. Shu bois quyidagi belgilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buni Jizzax viloyatida faoliyat yurituvchi "HELLO ZAMIN" MChJ ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz (2-jadval).

2-jadval. "HELLO ZAMIN" MChJning 2022-hamda 2023-yil iqtisodiy ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkich nomi	o'lchov birligi	yil 2022	yil 2023	Farqi
1	Daromad	mln. so'm	921.3	1240.2	318.9
2	Kiritilgan investitsiya miqdori	mln. so'm	622.5	742.8	120.3
3	Xarajat	mln. so'm	724.2	821.0	96.8
4	Foyda	mln. so'm	197.1	419,2	222.1
5	Bir so'mlik investitsiyaning daromadlilik darajasi	koeffitsiyent	1.48	1.66	0.18
6	Har 1 so'mlik foydaga erishish uchun kiritilgan investitsiya miqdori	koeffitsiyent	3.16	1.77	-1.39
7	Turistik korxona rentabelligi	koeffitsiyent	0.27	0.51	0.24

Ushbu ko'rsatkichlar asosida "HELLO ZAMIN" MChJning samaradorlik ko'rsatkichiga omillar ta'sirini baholaymiz.

Birinchidan, turistik korxona samaradorlik darajasini o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz.

$$\Delta Y = (Z_1^h * Z_2^h * Z_3^h) - (Z_1^r * Z_2^r * Z_3^r) = 1,66 * 1,77 * 0,51 - 1,48 * 3,16 * 0,27 = 0,24$$

Natijadan ko'rishimiz mumkinki korxona samaradorlik darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0.24 birlikga oshgan.

Ikkinchidan, natijaga omillar ta'sirini quyidagicha hisoblaymiz:

Birinchi omil, turistik korxona samaradorligiga investitsiyaning daromadlilik darajasi ta'siri.

$$\Delta Y_{z1} = (Z_1^h * Z_2^r * Z_3^r) - (Z_1^r * Z_2^r * Z_3^r) = 1,66 * 3,16 * 0,27 - 1,48 * 3,16 * 0,27 = 0,15$$

Ikkinchi omil, natijaga bir so'mlik sof foydaga erishish uchun kiritilgan investitsiya miqdorining ta'siri.

$$\Delta Y_{z2} = (Z_1^h * Z_2^h * Z_3^r) - (Z_1^h * Z_2^r * Z_3^r) = 1,66 * 1,77 * 0,27 - 1,66 * 3,16 * 0,27 = -0,62$$

Uchunchi omil, natijaga korxona rentabelligi darajasi ta'siri.

$$\Delta Y_{z3} = (Z_1^h * Z_2^h * Z_3^h) - (Z_1^h * Z_2^h * Z_3^r) = 1,66 * 1,77 * 0,51 - 1,66 * 1,77 * 0,27 = 0,71$$

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ko'rish mumkinki, kiritilgan investitsiyalarning daromadlilik darajasining 0.18 birlikga oshishi natijani 0.15 birlikga, korxona rentabelligining 0.24 birlikga oshishi natijani 0.71 birlikga o'sishiga olib kelgan bo'lsa, bir so'mlik foydaga erishish uchun kiritilgan investitsiya miqdorining 1.39 birlikga kamayishi natijani 0.62 birlikga pasayishiga olib kelgan. Natijada korxona samaradorlik darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0.24 birlikga o'sgan.

Bugungi kunda turistik xizmat hajmiga funksional bog'liq bo'lgan omillardan ko'ra korrelyatsion bog'liqlikdagi omillar ta'sirini o'rganish, natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ma'lum tartibga keltirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu tartib regressiya tenglamasida o'z aksini topadi.


Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Jizzax viloyatida bajarilgan turistik xizmatlar hajmi va unga ta'sir qiladigan omillar o'rganildi (3.15-jadval).

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha viloyatda turistik xizmatlar hajmi 2021-hamda 2022-yillarda kamayib ketgan. Buning asosiy sababi pandemiya davri bilan bog'liq ekanligi ma'lum (3-jadval).

3-jadval. Jizzax viloyatida turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va unga ta'sir qiluvchi omillar¹.

Ko'rsatkich nomi	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Turistik xizmat hajmi (mln. so'm)	135535	166801	176049,7	205048	219386	230677,9	245642.2	262969.2	787385.6	143372.1	348107.6	842420.4
Sotilgan yo'llanmalar soni (birlik)	54214	65412	67452	77965	81254	85121	95954	102866	289820	78166	147686	331922
Turistlar soni (kishi)	20601	25184	26576	31108	32453	34048	37800	89300	104334	35179	1254520	1446000
Joylashtirish vositalari soni (dona)	21	25	28	29	31	33	34	42	93	119	170	237
Turoperatorlar soni (dona)	2	2	3	3	3	3	3	5	7	8	10	16
Ziyorat turizmi obyektlari (dona)	9	9	10	11	11	12	12	16	16	20	20	25
Eko-agroturizm obyektlari (dona)	5	5	5	6	7	7	8	20	32	35	45	60
Turistik firmalar soni (dona)	3	4	4	5	6	7	8	8	9	10	12	15
Turistik transportlar (avtobus, mikroavtobuslar) soni (dona)	8	8	9	8	7	8	8	12	12	30	30	35

2012-2023-yillarda turistik xizmatlar hamda unga ta'sir qiluvchi omillarning dinamik o'zgarishini quyidagi diagrammalarda ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Turistik xizmatlar hajmi.

¹ O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Statistik to'plam. Toshkent-2023.



Viloyatda turistik xizmatlar hajmiga juda ko'plab omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi, chunki turizm sohasidagi xizmatlarning kelib chiqishi yoki hosil bo'lishi xususiyatlari juda o'zgaruvchanligi bilan boshqa sohalardagi xizmatlardan keskin ravishda ajralib turadi. Biz ushbu xizmatlarni tahlil qilish jarayonida ularga ta'sir qiluvchi sakkizta omilni oldik. Natija va omillar ta'sirini baholash maqsadida natijaning o'zgarishi bilan bog'liq tanlab olingan omillar o'zgarishini baholaymiz. Buning uchun natija hamda natijaga ta'sir etuvchi barcha omillarni dinamik o'zgarishini grafiklarda ko'ramiz (5-rasm).

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Jizzax viloyatida turistik xizmatlarining o'zgarishi bilan X2 omilining o'zgarish dinamikasi farq qilmoqda ammo X1, X3, X4, X5, X6, X7 hamda X8 omillarning o'zgarish dinamikasi natija o'zgarishiga to'g'ri proporsional harakat qilmoqda.



2-rasm. Natija va omillarning dinamik o'zgarishi.

Buning uchun quyidagi juft koeffitsiyent korrelyatsiya formulasidan² foydalanildi:

$$r = \frac{\overline{YX} - \bar{Y} * \bar{X}}{\sigma_Y * \sigma_X}$$

Bunda $\bar{Y}$, $\bar{X}$ – natijaviy va omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdorlari;

$\overline{YX}$ – natija bilan omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning ko'paytmasi;

σ_Y , σ_X – natijaviy va omillarning o'rtacha kvadratik chetlanishi.

Koeffitsiyent korrelyatsiyaning miqdori (-1)dan (+1)gacha oraliqdagi bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Koeffitsiyentning miqdori quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Koeffitsiyent korrelyatsiyasi (-1) va (+1)ga qancha yaqin bo'lsa natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik shuncha zich bo'ladi.

2. Agar $r = 0$ bo'lsa bular o'rtasidagi bog'liqlik yo'q, degan xulosa uchun asos bo'ladi.

3. Agar $0 < r < 1$ bo'lsa ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik bevosita to'g'ri bo'lib, bir xil yo'nalishga ega bo'ladi.

4. $-1 < r < 0$ bo'lsa ular o'rtasidagi bog'liqlik teskari ekanligini ko'ramiz.

5. $r = 1$ (-1) bo'lsa ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional, degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi.

Ushbu formuladan foydalangan holda GRETL dasturi yordamida o'zaro takrorlanuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagicha juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matrisasi tuzildi. Hisoblashlar natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni berdi (4-jadval).

2 Statistika: uchebnik. / pod red. S.A.Orexova. – M.: Eksmo, 2010. – s. 172.



4-jadval. Jizzax viloyatida turistik xizmatlar va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bir-biri bilan juft korrelyatsion bog'liqligi.

Y	X1	X2	X3	X4	
1,0000	0,9955	0,4756	0,5483	0,6176	Y
	1,0000	0,5332	0,6224	0,6872	X1
		1,0000	0,8917	0,8620	X2
			1,0000	0,9808	X3
				1,0000	X4
	X5	X6	X7	X8	
	0,4265	0,5841	0,5445	0,1783	Y
	0,5066	0,6540	0,6170	0,2695	X1
	0,7750	0,8369	0,9220	0,7449	X2
	0,9424	0,9776	0,9857	0,9076	X3
	0,9608	0,9761	0,9791	0,8673	X4
	1,0000	0,9614	0,9236	0,9404	X5
		1,0000	0,9421	0,8897	X6
			1,0000	0,8772	X7
				1,0000	X8

Korrelyatsiya koeffitsiyenti, 2012 -2023-davr uchun.

5% kritik qiymatlar (ikki tomonlama) = 0,7214 uchun $n = 12$

Yuqoridagi bog'liqlik darajalaridan kelib chiqqan holda tahlildan X3, X4, X6 hamda X7 omillarini chiqarib yuboramiz hamda qolgan omillar orqali gretl dasturi yordamida eng kichik kvadratlar usuli orqali tahlilni amalga oshiramiz. Tahlil qilish orqali r kvadrat 0,987489 tengligi aniqlandi. R-kvadrat (R)² mustaqil o'zgaruvchi yoki regressiya modelidagi o'zgaruvchilar bilan izohlanadigan qaram o'zgaruvchiga nisbatan tafovut nisbatlarini ifodalaydigan statistik o'lchov. Korrelyatsiya mustaqil va qaram o'zgaruvchini o'zaro bog'liqligini tushuntirsa, R-kvadrati bitta o'zgaruvchining dispersiyasi ikkinchi o'zgaruvchining farqini qay darajada izohlashini tushuntiradi. Shunday qilib, agar R^2 modelning qiymati 0,50 ni tashkil qilsa, keyin kuzatilgan o'zgarishning taxminan yarmini modelning kiritilishi bilan izohlash mumkin.

Tahlil natijasida natija hamda omillar o'rtasidagi bog'lanishlar bo'yicha yana quyidagi ko'rsatkichlar olindi (5-jadval). Jadval ma'lumotlaridan faqatgina X1 va X8 omillar hamda natija o'rtasida bog'liqlikni hamda boshqa omillar bo'yicha p qiymat 0.1dan yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

5-jadval. Xizmatlar bilan ularga ta'sir etuvchi omillarning bog'lanishi.

No	Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyent	t-statistika	p-ko'rsatkich	bog'liqlik darajasi
1	const	-288,997	-0,006892	0,9956	
2	X1	2,79146	38,90	0,0164	**
3	X2	0,00444952	0,3909	0,7627	
4	X5	487,342	0,1091	0,9308	
5	X8	-2800,94	-1,712	0,3366	

*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor.

** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha.

*** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.

Tahlil jarayonini faqatgina X1 hamda X8 omil orqali davom ettiramiz. X1 va X8 omillarini hisobga olgan holda gretl dasturi yordamida eng kichik kvadratlar usuli orqali tahlilni qayta amalga oshiramiz. Tahlil qilish orqali r kvadrat 0,985488 tengligi aniqlandi hamda quyidagi ko'rsatkichlar olindi (6-jadval).



6-jadval.


№	Ko'rsatkichlar	Koef-fitsiyent	St.xatolik	t-statistika	p-ko'rsatkich	Bog'liqlik darajasi
1	const	7210,95	2706,02	2,665	0,0258	**
2	X1	2,79848	0,0193698	144,5	<0,0001	***
3	X8	-2621,79	168,442	-15,56	<0,0001	***

*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor.

** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha.

*** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, natija hamda X1 va X8 omillar o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud. Tahlil jarayonida navbatdagi ishimiz natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik normal taqsimotga ega ekanligini tekshiramiz hamda GRETL dasturi yordamida normal taqsimotga tekshiramiz (3-rasm).



3-rasm. Natijaviy ko'rsatkich (Y) va X1 hamda X8 omillar ishtirokidagi me'yorli taqsimot testi.

Grafikdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki regression tenglamamiz me'yorli taqsimotga ega, chunki xi-kvadrat [-3;3] oralig'iga tegishli. Keyingi bosqichda GRETL dasturi yordami White testidan o'tkazilganda P qiymat 0,351938ga tengligi aniqlandi.

Yuqoridagi o'tkazilgan tahlillar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, tuzilayotgan regressiya tenglamasi iqtisodiy jihatdan aniq mazmunga va u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$Y = 2,79848 \cdot X_1 - 2621,79 \cdot X_8 + 7210,95$$


Ushbu ishlab chiqilgan regressiya tenglamasi mamlakatda turistik xizmatlarining keyingi to'rt yillik prognozini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Olib borilgan tahlil natijalaridan modelga kiritilgan sotilgan turpaketlar soni (X1) omil o'rganilgan yillar davomida o'rtacha 36% o'sganligi hamda turistik transportlar soni 20%ga o'sganligi aniqlandi.

O'rganilgan 12 yil hamda o'rtacha o'zgarish darajalarini inobatga olgan holda 2024-2027-yillar uchun quyidagi prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqildi (7-jadval).

7-jadval. 2024-2027-yillarda sotilgan turpaketlar soni hamda turistlarga ajratilgan transport vositalarining o'rtacha o'zgarishi natijasida turistik xizmatlar hajmining prognoz ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatkich nomi	2024	2025	2026	2027
1	Sotilgan turpaketlar soni	451414	613923	834935	1135512
2	Turistlarga ajratilgan transportlar soni	42	50	60	73
3	Turistik xizmatlar hajmi	1160369	1593124	2185195	2994639



4-rasm. Jizzax viloyatida sotilgan turpaketlar soni hamda turistlarga ajratilgan transport vositalarining o'rtacha o'zgarishi natijasida turistik xizmatlar hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari³.

Jizzax viloyatida turistik xizmatlar hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish natijasida ishlab chiqilgan turistik xizmatlar hajmining keskin oshganligini guvohi bo'lamiz. 2025-yilda 2023-yilga nisbatan 1,9 marta oshganligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turistlarning tashrifini viloyatlar bo'yicha tahlil qilganimizda Jizzax viloyati 81,82% bilan respublikamizda 5-o'rinni egallaydi. Lekin, bu turizmni viloyatda rivojlantirishda qoniqarli ko'rsatkich emas. Shu nuqtayi nazardan viloyatda turistik tashriflarning sonini oshirishdagi muammolar ekologik, rekreatsiya turizmlari resurslaridan foydalanish bilan bog'liq hisoblanadi. Ikkinchidan, eng muhimi, viloyatdagi turistik resurslarning xalqaro turizm va ichki turizmdagi salohiyati va uchinchidan, yana ham eng muhimi, viloyatdagi aholining turizmni qanday darajalarda tushunishi va qabul qilishi hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan davrda Jizzax viloyatida faoliyat olib borayotgan turistik firmalarning iqtisodiy ko'rsatkichlaridan sotilgan turpaketlar soni hamda turistlarga ajratilgan transport vositalarining o'rtacha o'zgarishi natijasida turistik xizmatlar hajmining 2027-yilga kelib, 3,5 marta oshirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muxammedov M.M., Muxammedova Z.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. // Monografiya. - Samarqand. Zarafshon.
2. Николаенко Д.В. Картографический метод исследования в рекреационной географии. Рекреационная география. Саратов, 2004. с. 25-36.
3. Nazarov Sh. H., va boshq. Hududlarni rivojlantirish strategiyasi. O'quv amaliy qo'llanma, Baqtriya press, Toshkent, 2017. -143 b.
4. Pardayev M.Q. Ekologik turizm asoslari. -Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2015.
5. Pardayev M.Q., Musayev X.N. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2008. -260 b.
6. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., i drugiye, Turizm asoslari Darslik, Tashkent, 2014. -331 b.
7. Tuxliyev I. S va boshqalar. O'zbekiston turistik-rekreatsiya salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoaxborot tizimini shakllantirishning metodologik asoslari. Monografiya, Turon nashr, Samarqand, 2021. -270 b.
8. O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Statistik to'plam. Toshkent-2023.
9. Statistika: uchebnik. / pod red. S.A.Orexova. - M.: Eksmo, 2010. - s. 172.

3 Muallif ishlanmasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
